

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.04.2021.F.76.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

HABIBULLAYEV MA'RUFJON ODILJON O'G'LI

**YANGI O'ZBEKISTONDA KORRUPSIYAGA QARSHI
KURASHNING MA'NAViy-MA'RIFIY OMILLARI**

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

**FALSAFA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Namangan – 2025

**Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
философским наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on
Philosophical Sciences**

Habibullayev Ma'rufjon Odiljon o'g'li

Yangi O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy omillari..
..... 3

Хабибуллаев Маруфжан Одилжан угли

Духовно-просветительские факторы борьбы против коррупции в новом
Узбекистане 23

Habibullayev Marufjan Odiljan ugli

Against corruption in the new Uzbekistan spiritual-educational factors of
struggle.....45

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works 49

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.04.2021.F.76.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

HABIBULLAYEV MA'RUFJON ODILJON O'G'LI

**YANGI O'ZBEKISTONDA KORRUPSIYAGA QARSHI
KURASHNING MA'NAVIY-MA'RIFIY OMILLARI**

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

**FALSAFA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Namangan – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/Fal872 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Namangan davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Namangan davlat universiteti veb-sahifasida (namdu.uz) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ismoilov Temur Islomovich
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

Nazarov Nasriddin Ataqulovich
falsafa fanlari doktori (DSc), professor

Mamatov Obidxon Vaqqosovich
falsafa fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Farg‘ona davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.04.2021.F.76.06 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “_____” _____ soat _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 160107, Namangan shahri, Boburshoh ko‘chasi, 161-uy. Tel.: (+99869) 227-06-12; Tel.: (+99869) 228-85-01, Faks: (+99869) 228-85-02. Web-sayt: www.namdu.uz, e-mail: info@namdu.uz, faks: (+99869) 227-07-61; e-mail: info@namdu.uz).

Dissertatsiya bilan Namangan davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (_____ raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 160107, Namangan shahri, Boburshoh ko‘chasi, 161-uy, Tel: (+99869) 228-85-01).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “_____” _____ kuni tarqatildi.
2025-yil “_____” _____dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi.

R. T. Jo‘rayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, siyosiy fanlar doktori (DSc), professor

Q. O. Maxkamov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, sotsiologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor

M. I. Ismoilov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, falsafa fanlari doktori, professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda korrupsiyaga qarshi kurashning ijtimoiy va ma'naviy-ma'rifiy komponentlarini rivojlantirish, korrupsiyaning oldini olish, uning sabablarini aniqlash hamda bartaraf etish, huquqbuzarliklarning oqibatlarini minimallashtirish, korrupsion munosabatlarning an'anaviy tabiati, ijtimoiy nazoratning barqaror usullarini takomillashtirish zaruriyati dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Xalqaro hamjamiyatlarda korrupsiyaning ikki tomonlama o'zaro ta'sirini dalillash, uning makro va mikro darajalarini belgilovchi institutsional xususiyatlarini ochib berish, jamiyatda ijtimoiy xavf hodisalarini oldini olishga doir innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqish, korrupsiyaga qarshi kurashda fuqarolik jamiyati institutlarining institutsional yondashuvlar zarurati ortib bormoqda. Voqelikda yuz berayotgan korrupsiyaviy hodisalar bilishning muhim va umumiy xususiyati bo'lib, uning mazmun-mohiyatini falsafiy idrok etish ko'nikmasini shakllantirish, unga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy omillarini aniqlash, jamiyatda sog'lom fikr hamda qonun ustuvorligini ta'minlashning ijtimoiy jihatlarini va ma'naviy omillarini ochib berish masalalari muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyoda korrupsiyaga qarshi kurashning ijtimoiy-iqtisodiy jihatlarini aniqlash va unga qarashi-kurash usullarini takomillashtirishga qaratilgan izlanishlar, uning kishilar kundalik ijtimoiy turmush-tarziga ta'sirini ochib berishga doir ilmiy loyihalar, korrupsiya, uni vujudga keltiruvchi muammolar hamda shart-sharoitlarni yechish yo'li bilan kamaytirish, cheklash, korrupsion munosabatlarga qarshi murosasizlikni shakllantirish, korrupsion xulq-atvorni shakllanishi asosida umuminsoniy qadriyatlardan og'ishni aniqlashga oid tadqiqotlar va umumqabul qilingan me'yorlarni qabul qilmaslik kabi xulq-atvor belgilarini yuzaga kelishining ijtimoiy-falsafiy asoslarini tahlil qilishga oid ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ularda korrupsiyaga qarshi kurashning ma'naviy (tarbiya, axloqiy qadriyatlar) va ma'rifiy (ta'limiy-tarbiyaviy hamda axboriy ta'sir mexanizmlari) omillarining profilaktik imkoniyatlarini baholash muhim ahamiyat kasb etmoqda.

So'nggi yillarda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar jamiyatda korrupsiyaga qarshi qonunchilikni takomillashtirishga qaratilgan ishlar olib borilmoqda hamda jamiyatda huquqiy ongini, ma'rifatni yuksaltirish qonuniylikni mustahkamlash, korrupsiyaga oid holatlarni o'z vaqtida aniqlash va unga qarshi samarali vositalarni topish hamda ularga chek qo'yish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Korrupsiya davlat va jamiyatni "qattiq tashvishga soladigan va bezovta qiladigan eng og'ir illat"¹lardan biridir. Bu borada unga qarshi kurashning huquqiy mexanizmlari samaradorligini oshirish, jamiyatning iqtisodiy (inflyatsiya, iqtisodiy beqarorlik, mehnatga haq to'lashdan qoniqmaslik) va ijtimoiy (nazoratning yo'qligi, o'zaro ishonchsizlik kayfiyati) sohalarini takomillashtirib borish dolzarb ahamiyatga egadir.

O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi O'RQ-419-sonli "Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga

¹ Мирзиёев Ш. М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари.-Тошкент: Ўзбекистон, 2020. – Б. 457.

mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2021-yil 6-iyuldagi PF-6257-sonli "Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo'lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari, 2020-yil 29-iyundagi PQ-4761-sonli "O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi Qarori hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Korrupsiyaga qarshi kurash qadim zamonlardan oq dolzarb va muhim masala bo'lib kelgan. Qadimgi davr faylasuflaridan Konfutsiy – davlat boshqaruvida axloq va fazilat muhimligini ta'kidlab, korrupsiya amaldorlar va hukmdorlar o'rtasida axloq va axloqning yetishmasligidan kelib chiqadi, deb hisoblagan.

Qadimgi yunon faylasufi Aflotun o'zining "Respublika" asarida korrupsiya muammosiga to'xtalib, hukumatdagi Korrupsiyaning oldini olish uchun dono va axloqiy rahbar bo'ladigan "faylasuf-hukmdor" g'oyasini taklif qiladi. Qadimgi yunon faylasufi Aristotel o'zining asarlarida poraxo'rlik va adolat masalasini muhokama qiladi. U adolat qonunlarga rioya qilishdan iboratligi, korrupsiya esa bu tamoyilni buzishi deya ta'kidlaydi. Ko'rinib turibdiki, antik davr faylasuflari korrupsiya muammosini hal qilishda turlicha yondashuvlarni taklif qilishgan, ammo ularning qarashlarining umumiy xususiyatlari axloq va adolatli boshqaruv zaruratiga qaratilgan.

G'arb mamlakatlarida korrupsiyaga qarshi kurashning ijtimoiy-ma'naviy jihatlari, korrupsiyaviy munosabatlarni yuzaga kelishi, manfaatlar to'qnashuvini keltirib chiqaruvchi shart-sharoitlar va psixologik omillar – K. Darden, M. Johanson, P. Mauro, L. Pellegrini, S. Tihonen, S. Vidmalm, R. Uvilim, K. Elliot, A. Haydenhaymer va M. Johnson² kabi olimlar tomonidan o'rganilgan. Shuningdek, mazkur masalaning ayrim jihatlari chet el ekspert va olimlaridan Dj. Ayolfi,

² Darden K. The Integrity of Corrupt States: Graft as an Informal State Institution / K. Darden // Politics and Society. – 2008. Vol. 36. – №1. – Pp. 35 – 59; Johnston M. Syndromes of Corruption. Wealth, Power and Democracy / M. Johnston. – New York: Cambridge University Press, 2005. – 267 p.; Mauro P. The Effects of Corruption on Growth and Public Expenditure / Edited by A. J. Heidenheimer, M. Johnston // Political Corruption: Concepts and Contexts. – Third Edition. – New Jersey: New Brunswick, 2007. – Pp. 339 – 352; Pellegrini L. Corruption, Development and the Environment / L. Pellegrini. – New York: Springer Science+Business Media, 2011. – 160 p; Tihonen S. The history of corruption in central government / S. Tihonen. – Amsterdam: IOS Press, 2003. – 215 p; Widmalm S. Decentralisation, Corruption and Social Capital / S. Widmalm. – USA, California: SAGE publications, 2008. – 231 p.; Elliott K. A. Corruption as an International Policy Problem: Overview and Recommendations / Ed. by K. A. Elliott. – Washington: Institute for International Economics, 1997. – Pp. 175 – 233.; Heidenheimer A., Johnston M., Levine V. (dir. publ.). Political Corruption: A Handbook / A. Heidenheimer, M. Johnston, V. Levine. – New Brunswick: Transaction Publishers, 1989.

I. Gayka, B. Dobovchek, G. Klemenchich, V. Lebo, Z. Ledergerber, U. Lu, M. Morenshlager, B. Pontifeks, O. Savran, Ya. Stusek, K. Uriarte hamda Luis Sousa, Avinash Dihit, Donald Krouz, Fransisko Kardonalari tomonidan o'rganilgan³.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlarida korrupsiyaga qarshi kurash masalalarini I. A. Aleksandrova, A. V. Kurakin, K. Baybolov, L. E. Blyaxer va N. A. Pegin, A. V. Daxinlar, korrupsiyaga qarshi kurashda qonunchilikni mustahkamlash va jazo mexanizmlarini qat'iylashtirishning huquqiy asoslarini K. V. Kabanov, S. Yu. Kabashov, T. L. Kozlov, O. N. Kostyuk, G. Pechenkin⁴ kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan. O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashning ta'sirchan mexanizmlarini ishlab chiqish, korrupsiyaga qarshi kurashuvchi institutsional tizimlar, ularni takomillashtirish masalasi olimlardan B. I. Ismoilov, R. A. Zufarov, N. Sh. Saidgaziyeva, U. Husainov va X. Meliyevlarning⁵ ilmiy ishlarida o'rganilgan.

Yuqoridagi tadqiqotlardan ko'rinadiki, dunyoning qator olimlari, tadqiqotchilari tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashning turli omillarini o'rganilishga doir tadqiqotlar olib borilmoqda. Ammo korrupsiyaga qarshi kurashning ma'naviy (tarbiya, axloq, qadriyatlar, halollik vaksinasi) va ma'rifiy (ta'limiy-tarbiyaviy va axboriy ta'sir mexanizmlari) omillarini tahlil qilish orqali davlat va jamiyatda kuchli antikorrupsion tafakkur va korrupsiyaning har qanday ko'rinishiga nisbatan muhosasizlik munosabatini shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy jihatlari ochib berish muhim o'rin tutadi.

³ Luis Sousa. Anti-corruption agencies: between empowerment and irrelevance. Crime, Law and Social Change, Springer Verlag, 2009., Alina Mungiu-Pippidi, 'Seven Steps to Control of Corruption: The Road Map', Daedalus, 2018., Avinash Dixit, Anti-Corruption Institutions: Some History and Theory, in K. Basu, T. Cordella (ed), Institutions, Governance and the Control of Corruption. Springer, 2018., Ronald Kroeze, et al, Anticorruption in History: From Antiquity to the Modern Era. – Oxford University Press, 2018., Francisco Cordona, Anti-corruption policies and agencies. Centre for Integrity in the Defense Sector, Guides to Good Governance. – 2015. – №3; John R. Heilbrunn, Anticorruption Commissions: Panacea or Real Medicine to Fight Corruption. World Bank Institute, 2004.

⁴ Александрова И. А., Кондрашкин В. М. Современная уголовная 101 политика по противодействию коррупции // Юридическая наука и практика: Вестник Нижегородской академии МВД России. – 2013. – № 22. – С. 29 – 32.; Куракин А. В. Административно-правовые средства предупреждения и пресечения коррупции в системе государственной службы Российской Федерации. Автореферат. Диссертации на соискание ученой степени доктора юридических наук. – Люберцы, 2008. – 9 с.; Байболов К., Сыдыкова Л., Сыдыкова А. Коррупция. Взятничество. Ответственность (вопросы теории и практики). – Бишкек: КPCY, 1999. – 120 с.; Барабашев А. Г. и др. Коррупция и конфликт интересов // Общественные науки и современность / А. Г. Барабашев, В. И. Александров, Е. П. Стружак. – 2010. – № 2. – 94 – 102 с.; Бляхер Л.Е., Пегин Н. А. Коррупция как политическая проблема: кто, как и зачем сражается с коррупцией в России // Политика. – 2012. – № 4. – 26 – 29 с.; Кabanov K. B. Коррупция: общая ситуация и текущие реалии // Общественные науки и современность. – 2011. – № 5. – С. 34 – 36.; Кабашов С. Ю. Урегулирование конфликта интересов и противодействие коррупции на государственной и муниципальной службе. – М.: Инфра-М, 2012.; Козлов Т. Л. О развитии института декларирования доходов публичными служащими // Вопросы правоведения. – 2012. – № 2. – 207 – 217 с.; Костюк О. Н. Порядок разрешения конфликта интересов на государственной службе // Мир современной науки. – 2012. – Т. 3. – С. 83 – 91.; Печенкин Г. Transparency International: по уровню коррупции Россия – это Нигерия [Электронный ресурс] Доступ из: <http://www.mk.ru>. (дата обращения: 15. 12. 2015).

⁵ Исмаилов Б. И. Ўзбекистон Республикасида коррупцияга қарши курашиш тизими ривожланиши. Монография. – Тошкент: Ўзбекистон Республикаси Бош прокуратураси Академияси Коррупцияга қарши курашиш илмий таълим маркази, ЮМОМ, 2020. – 170 б.; Zufarov P. A. Уголовная ответственность за получение взятки (Уголовно-правовые аспекты) : автореферат дис. ... канд. юрид. наук - Ташкент, 1994.; Исмаилов Б. И., Насриев И. И. Противодействие коррупции в частном секторе: международные стандарты и зарубежная правоприменительная практика. Монография. – Тошкент: Академия Генеральной прокуратуры Республики Узбекистан, ЦПКЮ, 2020. – 290 с.; Исмаилов Б. И. Опыт зарубежных стран в сфере противодействия коррупции: практические аспекты его использования в Республике Узбекистан//Учебное пособие. -Тошкент: Академия Генеральной прокуратуры Республики Узбекистан, 2020. – 146 с.; Мелиев Х. Коррупцияга қарши кураш муаммолари: миллий ва халқаро тажриба. Халқаро илмий-амалий семинар материаллари 2009 йил 20–21 октябрь. – Тошкент: Chashmaprint, 2010. –Б. 139.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Namangan davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq, "O'zbekistonda milliy demokratik taraqqiyot va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning dolzarb muammolari (2017 – 2030-y.y.)" mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashning ijtimoiy-ma'naviy omillarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

milliy va umumbashariy axloqiy qadriyatlar, ma'naviy-ma'rifiy me'yor hamda tamoyillarning korrupsiyaga qarshi kurashishdagi ijtimoiy imkoniyatlarini aniqlash; ijtimoiy texnologiyalar asosida jamiyatda korrupsiyaga qarshi kasbiy madaniyat, vijdonlilik, halollik, fidoyilik, sadoqatlilikni tarbiyalashning axloqiy samaradorligini asoslash;

korrupsiyaga qarshi kurashda fuqarolik jamiyati institutlarining funksional mexanizmlarini takomillashtirishning nazariy asoslarini ochib berish;

korrupsiyaga qarshi kurashda ommaviy axborot vositalarining hamda nodavlat va notijorat tashkilotlarining ma'naviy-ma'rifiy va axboriy imkoniyatlarini aniqlash.

Tadqiqotning ob'yekti sifatida O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy omillari olingan.

Tadqiqotning predmetini jamiyatda korrupsiyaga qarshi ma'naviy-ma'rifiy kurashning ijtimoiy-falsafiy vositlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda qiyosiy tahlil, analiz va sintez, tizimlilik, umumiylik, alohidalik va xususiylik kabi usullar qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

jamiyatda korrupsiyaviy munosabatlarni shakllantiruvchi salbiy ijtimoiy fenomenlarga nisbatan murosasiz sensori faollashtirish, ijtimoiy hayotdagi noaniq o'zgarishlar va manfaatlar to'qnashuvlarni oldini olishga olib kelishi orqali kishilarda adolat va tenglik tamoyillarini idrok etish ko'nikmasini takomillashtirishi dalillangan;

kishilarda korrupsiyani idrok etish ko'nikmasini shakllantirish huquqiy javobgarlik va ijtimoiy murosasiz muhitni yuzaga keltiruvchi ijtimoiy faol shaxs pozitsiyasini hosil qilishi sababli jamiyatni tashkil etuvchi subyektlar o'rtasidagi sotsial kataklizmlar (bo'hronlar)ni oqilona hal etishga olib kelishi asoslangan;

ta'lim tizimida korrupsiyaga qarshi kurashning ijtimoiy ta'sir etuvchi, regulyativ (nazorat qiluvchi), integratorlik (birlashtiruvchi), legitimlik (qonunlashtiruvchi) funksiyalarining shaxsiy va assotsiativ ko'rinishlarini institutsional rivojlantirish orqali korrupsiyaga qarshi kurashga doir atributiv kategoriyalar (ijtimoiy nazorat va jamoaviy birdamlik) jamiyatdagi ijtimoiy jarayonlar transformatsiyasiga intensiv ijobiy ta'sir etishi asoslangan;

korrupsiyaga qarshi komplayens faoliyatning institutsional salohiyatini oshirish, jamiyatda ijtimoiy ishonchni shakllantirishi, shaxsda statik (mavjud qonunlar) hamda dinamik (jamiyatning rivojlanishi qonunlari) qonunlarga nisbatan axloqiy mas'uliyatni yuksaltirishi ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy, huquqiy va iqtisodiy omillarining o'zaro uyg'unligi aniqlangan;

korrupsiyaga qarshi ma'rifiy kurashda huquqiy ong va madaniyatni shakllantirishning samaradorligi ochib berilgan;

korrupsiyaga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy omillarini tadqiq etish asosida jamiyatda mazkur illatga murossasizlikni shakllantirishga qaratilgan profilaktik vositalari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi xalqaro va Respublika miqyosdagi OAK ro'yxatiga kirgan ilmiy jurnal va konferensiyalarda maqola va ma'ruza shaklida muhokamasi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati unda ilgari surilgan g'oyalar hamda umumlashtirilgan ilmiy xulosalardan aholi o'rtasida jamiyatda huquqiy ong va madaniyatni yuksaltirishga va qonuniylikni mustahkamlashga qaratilgan targ'ibot-tashviqot ishlarida falsafiy tadqiqotlarda boshlang'ich manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, undan jamiyatda korrupsiyaga qarshi murossasizlikni shakllantirishda jamoatchilik nazoratini o'rnatishda, shuningdek nodavlat tashkilotlar, o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatida, ta'lim tizimida korrupsiyaga qarshi kurashda metodik qo'llanma sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Jamiyatda korrupsiya tahdidining oldini olishning ijtimoiy-falsafiy jihatlarini o'rganligish bo'yicha olingan tadqiqot natijalari asosida:

jamiyatda korrupsiyaviy munosabatlarni shakllantiruvchi salbiy ijtimoiy fenomenlarga nisbatan murossasiz sensori faollashtirish, kishilarda korrupsiyani idrok etish ko'nikmasini shakllantirishda xalqimizning axloqiy-ma'naviy qadriyatlari aks ettirilgan me'yor va tamoyillar asosida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha davlat va jamiyat boshqaruvi siyosatini keng jamoatchilik ongiga transformatsiyalashning raqamli va oshkoralikka asoslangan mezoni hamda targ'ibot-tashviqot va ta'lim-tarbiya tizimi faoliyatiga yanada ko'proq e'tibor qaratishga doir taklif va xulosalaridan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2023 – 2024-yillarda o'tkazilgan targ'ibot dasturlarini ishlab chiqishda foydalanilgan (Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi ijtimoiy ma'naviy tadqiqotlar institutining 2025-yil 7-iyuldagi 02-832-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashda ma'naviy-ma'rifiy soha targ'ibotchilari uchun uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqishga hamda ijtimoiy hayotdagi noaniq o'zgarishlar va manfaatlar to'qnashuvlarni oldini olishga olib keluvchi adolat va tenglik tamoyillarini idrok etish ko'nikmasini takomillashtirishga xizmat qilgan;

kishilarda korrupsiyani idrok etish ko'nikmasini shakllantirish huquqiy javobgarlik va ijtimoiy murossasiz muhitni yuzaga keltiruvchi ijtimoiy faol shaxs pozitsiyasini hosil qilish, fuqarolik jamiyati institutlarining jamoatchilik nazorati,

tartibga solish chora ko‘rish singari funksional mexanizmlarining uslubiy, metodologik, amaliy jihatlarini yanada takomillashtiriga doir taklif va tavsiyalaridan O‘zbekiston Milliy universitetida 2018-2020-yillarda bajarilgan PZ-20170928696-raqamli “O‘zbekistonda islohotlar jarayonini tahlil etish va amalga oshirishning konseptual-falsafiy metodologiyasi (Harakatlar strategiyasi asosida)” mavzusidagi amaliy loyiha doirasida foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy universitetining 2025-yil 3-iyuldagi 04/11-8580-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, aholining jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashning ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy ma’rifiy omillarini tizimlashtirishga doir qarashlarining metodologik asoslarini ishlab chiqishga xizmat qilgan;

ta’lim tizimida korrupsiyaga qarshi kurashning ijtimoiy ta’sir etuvchi, regulativ (nazorat qiluvchi), integratorlik (birlashtiruvchi), legitimlik (qonunlashtiruvchi) funksiyalarining shaxsiy va assotsiativ ko‘rinishlarini institutsional rivojlantirishga oid xulosa va tavsiyalaridan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazining 2023 – 2024-yillarda o‘tkazilgan targ‘ibot dasturlarini ishlab chiqishda foydalanilgan (Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi ijtimoiy ma’naviy tadqiqotlar institutining 2025-yil 7-iyuldagi 02-832-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, korrupsiyaga qarshi kurashga doir atributiv kategoriyalar (ijtimoiy nazorat va jamoaviy birdamlik) jamiyatdagi ijtimoiy jarayonlar transformatsiyasiga intensiv ijobiy ta’sir etishini asoslashga hamda mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashda ma’naviy-ma’rifiy soha targ‘ibotchilari uchun uslubiy qo‘llanmalar ishlab chiqishga xizmat qilgan;

korrupsiyaga qarshi komplayens faoliyatning institutsional salohiyatini oshirish, jamiyatda ijtimoiy ishonchni shakllantirishi, shaxsda statik (mavjud qonunlar) hamda dinamik (jamiyatning rivojlanishi qonunlari) qonunlarga nisbatan axloqiy mas’uliyatni yuksaltirishga oid xulosa va takliflaridan O‘zbekiston Milliy universitetida 2018–2020-yillarda bajarilgan PZ-20170928696-raqamli “O‘zbekistonda islohotlar jarayonini tahlil etish va amalga oshirishning konseptual-falsafiy metodologiyasi (Harakatlar strategiyasi asosida)” mavzusidagi amaliy loyiha doirasida foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy universitetining 2025-yil 3-iyuldagi 04/11-8580-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, aholining jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashning ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy ma’rifiy omillarini tizimlashtirishga doir qarashlarining metodologik asoslarini ishlab chiqishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 3 ta Respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma’ruza ko‘rinishida bayon etilgan hamda aprobatsiyadan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 16 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola (6 ta Respublika va 1 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, yetti paragraf, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat bo‘lib, uning asosiy qismi 131 sahifani tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, muammoning o'rganligilganlik darajasi, ilmiy yangiligi, tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi, obyekt, predmeti, metodlari, maqsadi va vazifalari aniqlangan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy qilinganligi, aprotatsiyasi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Yangi O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy omillarini tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida korrupsiya tushunchasining mazmun-mohiyati va unga qarshi kurashishning ma'naviy-ma'rifiy asoslari hamda korrupsion xulq-atvoriga moyillikning ijtimoiy-falsafiy tahlili keltirilgan.

“Korrupsiya” tushunchasi “buzish, pora evaziga og'dirish” degan ma'noni anglatadigan lotincha “corruptio” so'zidan kelib chiqqan. Demak, korrupsiyaning etimologik ma'nosi pora evaziga og'dirish, tartib-qoidani buzish degan ma'nolarni anglatadi. Korrupsiyaning tizimli xarakteri uning korrupsiya qamrab olgan davlat tashkilotlarida ishlaydigan shaxslar uchun majburiy xarakterda ekanligida ham namoyon bo'ladi. Makroiqtisodiy va siyosiy iqtisodga oid tadqiqotlarga ko'ra, korrupsiya jiddiy ziyon yetkazib⁶, iqtisodiy o'sish va butun jamiyat manfaatlarida rivojlanishga to'sqinlik qiladi⁷. Ko'plab mamlakatlarda korrupsiyaga qarshi kurashda ma'naviy-ma'rifiy va axboriy ta'sir mexanizmlaridan foydalaniladi.

Dissertatsiyamizda, korrupsiyaga qarshi kurashning murakkabligi shundaki, korrupsiya nafaqat yashirin, shu bilan birga sodir etilishida kelishuv xususiyatiga ham ega. Aksariyat hollarda uning ustidan shikoyat qilinmaydi, chunki ikkala tomon ham noqonuniy bitimdan foyda oladi. Hatto pora talab qilish ustidan har doim ham shikoyat qilinmaydi, chunki odamlar korrupsiyaga qarshi kurash jarayoniga har doim ham ishonmaydilar. Buning uchun ham obyektiv, ham subyektiv xususiyatga ega bo'lgan muayyan asoslar bo'lib, ular ham mamlakatda, ham xorijda to'plangan tajribalarga aloqadordir.

Korrupsiyaga axloqiy munosabatga qaratilgan ta'rifni A. I. Kirpichnikov beradi: Unga ko'ra, “korrupsiya – hokimiyatning chirishi. Zang metallni yemirganligidek, korrupsiya ham davlat apparatini buzadi va jamiyatning axloqiy negizlarini nuratadi. Korrupsiya darajasi – jamiyatning o'ziga xos termometri, uning axloqiy holati va davlat apparatining vazifalarini o'z manfaatlarini emas, balki jamiyat manfaatlarini yo'lida hal qilish qobiliyatining ko'rsatkichi. Metall uchun zanglash chidamlilik darajasining pasayganligini bildirganligidek, jamiyat uchun korrupsiyaga berilish unga qarshilik ko'rsatish qobiliyatining pasayganligini bildiradi”⁸. Korrupsiya bilan bog'liq muammolar azaldan mavjud bo'lishiga qaramasdan, uning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ma'naviy xarakteriga

⁶ Румянцева Е. Е. Каков в совокупности и по его частям ущерб от коррупции — кто представит обществу самую верную методику его расчета? // Экспертная сеть по вопросам государственного управления «Госбук» // <http://www.gosbook.ru/node/81444>.

⁷ Bardhan P. Corruption and development // Journal of Economic Literature. – 1997. – Vol. 25. – P. 1320.

⁸ Кирпичников А. Это модное слово «коррупция» // Российская провинция. – Набережные Челны, 2012. – №5.

so‘nggi yillarda dunyoning barcha mamlakatlarida e‘tibor qaratila boshladi. Turli adabiyotlarda “korrupsion xulq-atvor” tushunchasiga turli xil ta‘riflar berilgan. Unga ko‘ra, “Korrupsiya – davlat yoki xususiy sektorda muayyan majburiyatlarni bajarish topshirilgan va ularga maqomi bo‘yicha davlat lavozimidagi shaxs, xususiy xodim, mustaqil agent yoki boshqa turdagi munosabatlar yuklangan majburiyatlarning buzilishiga olib keladigan va o‘zi hamda boshqalar uchun istalgan noqonuniy foyda olish maqsadiga ega bo‘lgan shaxslarning poraxo‘rligi hamda har qanday xulq-atvorini o‘zida aks ettiradi”⁹.

Korrupsion xulq-atvor qoida shaklida ma‘lum ijtimoiy muhitda mujassamlanib, avloddan-avlodga o‘tsa, kishilarning tabiiy hayotiy talablari asosida yuzaga chiqishi natijasida ko‘p marotaba takrorlanish asosida ular odat shakliga aylanadi. Korrupsiyaga moyillik odati jamiyat uchun eng xavfli holat hisoblanadi. Jamiyatdagi bunday psixologik holatni bartaraf etish juda katta muddatni yoki avlodlar almashinuvini talab qilishi mumkin.

Korrupsiyaning ma‘naviy-axloqiy izohini ochko‘zlik, hasad, cheksiz tekin daromad orttirish va lazzatlanish ishtiyoqi kabi turli noinsoniy illatlar ko‘rinishida namoyon bo‘lishi bilan taqqoslash mumkin. Mazkur fenomenning madaniy jihati esa, u yoki bu jamiyat va davlatning madaniy xususiyatlari hamda an‘analari, shuningdek, ushbu xalqqa xos bo‘lgan milliy fe‘l-atvor chiziqlari va mentalitet xususiyatlariga bog‘liq. Korrupsiyaning kundalik-maishiy aspekti poraxo‘rlik, oshna-og‘aynigarchilik (lavozimdagi shaxs davlat lavozimiga tayinlashda o‘zining qarindoshlari, yaqinlarini ilgari surishi) bilan bog‘liq.

Shaxsning o‘shisi qiyosiy jihatdan keng doirani qamrab oladi va beshta asosiy tuzilmaviy elementdan iborat:

Korrupsiyaga moyil shaxsning xulq-atvorini tushunish uchun bu shaxsning harakatlarini tushunish darkor. Korrupsiogen shaxs hayotining mazmuni uning hayotiy maqsadlari va turmushining umumiy mazmunga oid yo‘nalganligi prizmasi orqali tushuniladi. Shu mazmunda korrupsiogen shaxs xulq-atvorining mazmun hosil qiluvchi yetakchi tarkibiy qismi hayot mazmunining ahamiyatli deskriptori sifatida boylik orttirish hisoblanadi. Boshqacha aytganda, ziddiyat vijdon foydasiga hal bo‘lmaydi va shu bilan korrupsiyaga moyil shaxs hayot mazmunini moddiy boyliklarga ega bo‘lishda ko‘radi.

Qadriyatli orientatsiyalar – bu shaxsning xulq-atvorini boshqaruvchisi sifatida yuzaga chiquvchi ijtimoiy qadriyatlarga bo‘lgan munosabati, ular shaxs yo‘nalganligining mazmuniy tomonini hosil qiladi va uning borliqqa munosabatining ichki asosini ifodalaydi. Shubhasiz, korrupsiyaga moyil shaxs uchun shaxsning ma‘naviy qadriyatlari emas, balki moddiy qadriyatlar ustunlik qiladi, bu esa ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatli manfaatlar o‘rtasidagi nizo vaziyatida uning tanlovini shaxsiy manfaatlar foydasiga hal bo‘lishini bashorat qiladi. Shu bilan korrupsiyaga yuqori moyilligi bo‘lgan odam uchun baxt va farovonlik o‘lchovi hashamat, yetakchi qadriyat esa, “bo‘lish” emas, balki “ega bo‘lish”dir.

⁹ Максимов, В. К. Понятие коррупции в международном и российском праве. // Право и безопасность. – 2002. № 2–3.

Kognitiv-ma'naviy darajaga ma'naviy xulq-atvorning individual, axloqiy, ijtimoiy va huquqiy ustanovkalari¹⁰ taalluqli. Agar tuzilmada ma'naviy xulq-atvor determinanti individual ustanovkalardan ustunlik qilsa, unda korrupsiyaga qarshi barqarorlik ko'rsatkichlari yuqori, chunki bu ustanovkalar interiorizatsiyalangan¹¹, shaxsga xos bo'lgan ma'naviy o'z-o'zini anglash xulq-atvorning individual me'yori bo'ladi. Agar axloqiy determinantlar ustunlik qilsa, unda ko'rsatkichlar past bo'ladi, agar ijtimoiy ko'rsatkichlar hali past, huquqiy determinant ustunlik qilgan holatda korrupsiyaga qarshi barqarorlik ko'rsatkichlari birmuncha past bo'ladi, chunki bunda ma'naviy xulq-atvorning asosiy regulyatori insonga nisbatan retributiv adolat tamoyili (rag'batlantirish va jazolash) bo'ladi.

Emotsional darajada korrupsiyaga moyillikni aniqlash uchun ahamiyatli bo'lgan bir nechta ko'rsatkichlar ajratiladi: hayotdan qoniqish, kasbidan qoniqish, shaxsiy maqomidan, o'z-o'ziga munosabatidan qoniqish. Hayotdan qoniqish shkalasi bo'yicha yuqori, o'rta va past darajalarni ajratish mumkin. Hayotdan qoniqish shkalasi bo'yicha yuqori ko'rsatkichlar korrupsiyaga qarshi yuqori barqarorlik va aksi bilan korrelyatsiyalanishi zarur.

Axloqiy daraja-shaxsning tashqi qo'zg'atuvchilarga reaksiyasining ikkita asosiy: impulsiv¹² va reflektiv¹³ tipini ajratish mumkin. Impulsiv tip uchun ularga beixtiyoriy emotsional reaksiya xos. Insonning harakatga reaksiyasining reflektiv tipi vaziyatni mantiqiy tahlil qilish bilan shartlangan. Bundan xulosa qilish mumkinki, reaksiya qilishning impulsiv tipi yetakchi bo'lgan odam reaksiyaning reflektiv tipi yetakchi bo'lgan odamga qaraganda korrupsion xulq-atvorga yuqori darajada moyil bo'ladi. Har bir odamda, odatda, xulq-atvorning ikki: haqiqiy va ratsionallashtirilgan motivi bor. Birinchi motiv – anglanmagan, ikkinchisi anglanganga kiradi. Birinchi motivning qo'zg'alishi shaxs axloqining haqiqiy sababi, ikkinchi turdagi motivniki – inson tomonidan o'z xatti-harakatini o'ziga xos bo'lgan etik me'yorlar bilan oqlashga urinishdir. Real axloqda ular deyarli hech qachon mos tushmaydi.

Korrupsiyaning jamiyat uchun ma'naviy oqibatlarini quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- korrupsiya insonlar ongida muayyan iz qoldirganicha, jamiyat uchun noto'g'ri yo'nalish beradi;
- korrupsiya odamlarning hokimiyatga bo'lganligiday, boshqa insonlarga bo'lgan ishonchini so'ndiradi;
- avlodlarning dunyoqarashiga ta'sir ko'rsatadi (ota-onasining korrupsion jamiyatdan norozi bo'lishlari oqibatida, farzandlar o'zlariga xulosa chiqaradilar);
- korrupsiya mulkiy notenglikning keskin ortishiga hissa qo'shib, himoyaga muhtoj qatlam miqdorini ko'paytiradi;
- korrupsiya jamiyat hayotining nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy, ma'naviy, maishiy aspektlariga ham daxl qiladi;

¹⁰ Tayyorli, muayyayn harakatlarga moyillik yoki muayyan stimullarga reaksiyani ifoda etadi.

¹¹ Tashqi ijtimoiy faoliyatni o'zlashtirish, hayotiy tajribani o'zlashtirish, aqliy funksiyalarni shakllantirish orqali inson psixikasi ichki tuzilmalarining shakllanishi.

¹² Shaxsning o'tkinchi, o'ylamagan harakatlari va ularga moyilligida namoyon bo'ladigan xarakterli xususiyati.

¹³ Organizmning umumiy faollashuvida, diqqatni jamlashda, kuch va resurslarni safarbar qilishda namoyon bo'ladi.

- korrupsiya muhim ijtimoiy oqibatlariga ega bo‘libgina qolmay, odamlarning o‘zaro munosabatlarida ham o‘z aksini topadi;
- korrupsiya davlat va jamoatchilik, fuqarolar manfaatleri o‘rtasida adekvat bo‘lmagan ziddiyatni keltirib chiqaradi;
- korrupsiya adolatga bo‘lgan ishonchni so‘ndirib, qabul qilingan qarorlarning maqsadga muvofiqligiga shubha uyg‘otadi, bu bilan jamoatchilik qadriyatlariga tahdid soladi.

Korrupsion xulq-atvorning shaxsiy determinantlariga quyidagilar kiradi:

- korrupsion xulq-atvor – bu lavozimdagi shaxsning xizmat maqomini suiiste‘mol qilish yo‘li bilan shaxsiy foyda olishga yo‘naltirilgan xulq-atvori;
- korrupsion bosim – bu shaxsiy foyda olish uchun hokimlik vakolatlarini suiiste‘mol qilish yoki undan voz kechish o‘rtasidagi tanlov vaziyatiga olib keluvchi, lavozimdagi shaxsga ta‘sir ko‘rsatishning ijtimoiy va psixologik omillari majmuidir;
- korrupsiyaga moyillik – bu korrupsion bosim vaziyatida korrupsion xulq-atvorni tanlashga shaxsiy moyillikdir¹⁴.

Xulosa qilib aytganda, korrupsion xulq-atvor o‘zida ijtimoiy axloqning turli-tumanligini aks ettiradi, chunki u o‘z natijalariga ko‘ra, alohida odamlar, ijtimoiy guruhlar, ijtimoiy hamjamiyatlar va umuman olganda, jamiyatning manfaatlariga daxl qiladigan lavozimdagi shaxslarning xatti-harakatlari va muomalalarining majmui bilan bog‘liq. Aynan shunday xulq-atvorda insonning individual-psixologik va ijtimoiy xislatlari namoyon bo‘ladi, masalan, uning temperamenti, fe‘l-atvori, irodasi, motivatsiyasi, kasbiy-ma‘naviy e‘tiqodi, qadriyatli yo‘nalishlari hamda boshqalar.

Dissertatsiyaning **“Yangi O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashning ma‘naviy-ma‘rifiy omillarining ijtimoiy-falsafiy tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida yangi O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashning ma‘naviy-ma‘rifiy omillarining ijtimoiy-falsafiy tahlili tadqiq etilgan. Shu bilan birga, korrupsiyaga qarshi kurashda ommaviy axborot vositalarining axborot-ma‘rifiy imkoniyatlarini oshirishning istiqboldagi vazifalari yoritilgan.

2019-yilning 29-yanvarda Transparency International – Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish tashkiloti 2018-yil uchun korrupsiyani qabul qilish indeksini e‘lon qildi va unda korrupsiyaga qarshi kurashish va demokratiyani mustahkamlashda amaliy natijalarga erishish uchun hukumatni korrupsiyaga qarshi kurashishda erkin va mustaqil OAVni qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, jurnalistlar xavfsizligini, ularning qo‘rqitish va tazyiqsiz faoliyat ko‘rsatishlarini ta‘minlashga chaqirdi.

Darhaqiqat, OAV jamiyatda korrupsiyaning har qanday ko‘rinishiga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, korrupsiya holatlarining oldini olish bo‘yicha fuqarolarning huquqiy ta‘lim-tarbiyasi va bilimni oshirish, mansabdor shaxslarning keng jamoatchilik oldida tizimli javobgarligini ta‘minlash masalalarida muhim rol o‘ynaydi. OAV huquqni muhofaza qilish organlarining korrupsion jinoyatlarning

¹⁴ Ванновская, О. В. Психология коррупционного поведения госслужащих. Монография. – СПб.: Книжный дом, 2013. – 264 б.; O‘sha muallif: Личностные детерминанты коррупционного поведения // Известия РГПУ им. А. И. Герцена. – 2009. – № 102.

oldini olish bo'yicha olib borayotgan tizimli ishlarini tezkor ravishda yoritishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, ommaviy auditoriya uchun nafaqat yuqori lavozimdagi korrupsionerlarni ushlab to'g'risidagi shov-shuvli xabarlar, balki turli xil fakt, hodisalar o'rtasidagi sabab-oqibatlarini ochib bera oladigan chuqur mulohazali, xolisona tayyorlangan, tahliliy va tergov materiallarini e'lon qilish ham talab qilinadi. Gazetxon, radiotinglovchi va teletomoshabinlar uchun adolatli jazo muqarrarligini aniq misollar yordamida ko'rsatadigan korrupsion jinoyatlar bo'yicha sud jarayoni natijalari to'g'risida tezkor hisobot, reportaj va sharhlarni taqdim etish ham taqozo etilmoqda. Shundagina mamlakat fuqarolari ongida korrupsiyaga qarshi kurash, mamlakatda qonun ustuvorligi amaliyotda o'z ifodasini topayotganligi to'g'risida aniq va adekvat fikrlar shakllantiriladi. Shu nuqtai nazardan Respublikada jurnalistlar va boshqa OAV xodimlarining korrupsiyaga qarshi kurashdagi ma'rifiy imkoniyatlarini oshirish vazifasi dolzarb bo'lib qolmoqda.

Aholini huquqiy axborotlar bilan ta'minlash, mamlakatda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining korrupsiyaga qarshi kurashish borasida olib borayotgan sa'y-harakatlarini faol yoritish maqsadida Respublikada 5 dan ziyod ixtisoslashgan jurnal va 40 ga yaqin gazetalar ko'p minglik adadda nashri etib kelinmoqda. Ular ichida "Huquq", "Inson va qonun", "Kuch – adolatda" kabi davriy nashrlar o'ziga xos o'rin tutadi. "Xalq so'zi"- "Narodnoe slovo", "Pravda Vostoka" va boshqa ijtimoiy-siyosiy gazetalar "Sud himoyasida", "Inson va qonun", "Sud va ish" kabi ruknlarda muntazam ravishda maqolalar berib boriladi. O'zbekiston telekanalida doimiy ravishda "Odil sud" ko'rsatuvi efirga uzatilib boriladi, alohida ahamiyatga molik jinoiy, fuqarolik, ma'muriy va iqtisodiy ishlarga oid sud jarayonlari "Sevimli", "Zo'r TV", "MY5", "O'zbekiston 24", "Yoshlar", "Uzreport" va boshqa telekanallarda efirga uzatilib boriladi. Korrupsiyaga qarshi kurashish, fuqarolarni korrupsiya illati haqida xabardor qilish va ularda korrupsiyaga nisbatan murosasizlik madaniyatini shakllantirish vazifasini hal etishda elektron OAV, avvalambor Internet-OAVning o'rni ham kun sayin oshib bormoqda. Mazkur yo'nalishda Gazeta.uz, Kun.uz, Daryo.uz, Podrobno.uz va boshqa bir qator internet nashrlar faollik ko'rsatmoqda.

OAV korrupsiyaga qarshi kurashishda jamoatchilik fikrini shakllantirishda o'ta muhim rol o'ynaydi. Jamoatchilik fikrini shakllantirish bo'yicha ular quyidagi vazifalarni amalga oshira oladilar:

- korrupsion omil va munosabatlar maydonini imkon qadar tizimli qisqartirish va minimallashtirishga yordam berish;
- jamoatchilik ongiga korrupsiyaga murosasizlik tuyg'usini singdirish;
- jamiyatda davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatish g'oyasini targ'ib qilish;

– o‘z mamlakatiga sadoqatli bo‘lish, fuqarolik mas‘uliyatini his qilish, jamiyatda sodir bo‘layotgan har qanday voqeaga befarq bo‘lmaslik g‘oyasi ostida o‘z a‘zolarini jipslashtirgan ijtimoiy-siyosiy tuzilmalarni tuzishda ishtirok etish¹⁵.

Yangi O‘zbekistonda 2017-yil boshidan buyon korrupsiyaga qarshi kurashish mavzularining matbuotda e‘lon qilinish bilan bog‘liq bo‘lgan jurnalistlarga so‘nggi 10 – 15 yil ichida “deyarli unutilgan” sud reportajlari, tahliliy janrlar va sud ocherklari imkoniyatlaridan yanada kengroq foydalanish imkonini yaratildi. Buni, birinchi navbatda, ijtimoiy-siyosiy bosma davriy nashrlar faoliyatida yaqqol ko‘rish mumkin. Maxsus ruknlar va tematik sahifalar hozirda keng auditoriyaga bu borada turli xil ma‘lumotlarni taqdim etmoqda. Bu esa jamoatchilikda hukumatning korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabati to‘g‘risidagi fikrlari shakllana boshladi.

Mamlakat televideniyesi ushbu mavzuga Milliy teleradiokompaniyaning “Munosabat” (“O‘zbekiston” telekanali), “Ochiq muloqot” (Toshkent telekanali) kabi teleko‘rsatuvlar yordamida “yangi hayot baxsh etildi”. Xuddi shu mavzuning “MY5” va “Milliy TV” nodavlat telekanallari orqali alternativ nuqtayi nazar va televizion jurnalistik ma‘lumotlar yordamida taqdim etilishi ularning mavqeini kuchaytirib yuborishga xizmat qildi¹⁶.

Internet nashrlari korrupsion jinoyatlar to‘g‘risida eng tezkor xabar taqdim etuvchi OAV hisoblanadi. Adliya vazirligining huquqiy-axborot kanali Telegram messenjeri bu yo‘nalishda ko‘plab axborot-ma‘rifiy ishlarni amalga oshirmoqda. Bu masalada blogerlarning axborot resurslari ham foyda keltirmoqda. Ammo ko‘pincha ishonchligi nuqtayi nazaridan ular taqdim etgan ma‘lumotlar orasida ishonchsiz axborotlar ham uchrab turadi.

Xorijiy ekspertlarning ta‘kidlashicha, korrupsiyaga qarshi kurashish mexanizmda, OAV quyidagi vazifalarni hal qilmoqda: 1) korrupsion sxemalarda ishtirok etganlik uchun javobgarlik borligi to‘g‘risida fuqarolarni xabardor qilmoqda; 2) jamiyatda korrupsiyaning har qanday ko‘rinishni rad etish va qoralash muhitining yaratilishiga hissa qo‘shmoqda; 3) korrupsiyaga oid barcha ishlarni, shu jumladan korrupsiya holatlarining ochiq ro‘yxatini ommaga e‘lon qilmoqda; 4) korrupsiyaga qarshi kurashishda biznesni ochiqchasiga qo‘llab-quvvatlamoqda va tadbirkorlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasida OAVdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirmoqda; 5) davlatning korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi qarorlarini ochiq qo‘llab-quvvatlamoqda¹⁷.

Xulosa qilganda, OAVning vazifasi davlat idoralariga, teletomoshabinga, radiotinglovchilarga, gazetxonlarga korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi ishonchli ma‘lumotni yetkazish, jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaga qarshi kompleks strategiyani amalga oshirish jarayonini namoyish etishdan iborat. Bundan tashqari, davlat nazorati organlariga muayyan odamlarning aniq muammosi

¹⁵ Маматова Я. М., Сулайманова С. Р. В поисках истины: факторы эффективности журналистского расследования в узбекистане. – Ташкент: Экстремум пресс, 2015. – С. 36.

¹⁶ Маматова Я., Хидиров К. Ўзбекистон масс-медияси – коррупцияга қарши курашишнинг самарали воситаси. – Тошкент: ЎзМУ. 2020. – Б. 17.

¹⁷ Хидиров К. Роль средств массовой информации в противодействии коррупции. – Ташкент: Vneshinvestprom, 2019. – С. 71.

jamoatchilik nazorati ostiga olinganligi haqidagi xabarlarni ham yetkazib turish muhim masala hisoblanadi.

Bugungi kunda jamiyat va davlat taraqqiyotining hozirgi holati ijtimoiy-huquqiy munosabatlar barcha ishtirokchilarining huquqiy madaniyatini va huquqiy savodxonligini har tomonlama oshirishni talab etmoqda.

Bizningcha, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, huquqiy savodxonlik haqida gap ketganda, ko'pchilik faqat qonunlarni bilish yoki ulardan boxabarlik darajasini tushunadilar. Aslida, bu juda keng tushuncha bo'lib, davlat va jamiyat rivojlanganligini belgilaydigan muhim omillarni ham o'z ichiga oladi. Ya'ni huquqiy madaniyati yuksak inson qonunlarga itoatkor bo'ladi, hamisha unga bo'ysunadi va qonunlarga nisbatan hurmat bilan qaraydi. Bunday insonlar qonunlarda belgilangan qoidalarga zid xatti-harakat qilmaydi, aksincha, boshqalarni ham shunga da'vat etadi. Ijtimoiy-siyosiy faol fuqaro jamiyatda ro'y berayotgan voqea-hodisalarga ongli munosabatda bo'lib, islohotlarga daxldorligini sezib, davlat va jamiyat oldidagi fuqarolik mas'uliyatini his qilib yashaydi.

